



## INTERNET VA HOZIRGI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING JAMIYATDAGI O'RNI

---

*Muhammadiyeva Mashxuraxon Javdat qizi*

*Filologiya fakulteti talabasi*

*Aldashev Ilhomjon To'xtaboyevich*

*Axborot texnologiyalari kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada insoniyatning ajralmas bir qismi bo'lib borayotgan internet va hozirgi zamonaviy texnologiyalarning jamiyat hayotiga ijobiy va salbiy ta'sirlari, sun'iy intellektlar haqida ma'lumotlar yozilgan.

**Kalit so'zlar:** texnologiya, internet, onlayn ta'lim, ijtimoiy tarmoq, elektron pochta, onlayn savdo, robot, sun'iy intellekt .

Barchamizga ma'lumki, XXI asr texnologiyalar asri hisoblanadi va bu davrda internet rivoj topib bormoqda. Texnologiya ilg'or ma'naviyatga, madaniyatga va iqtisodiy rivojlanishga katta ta'sir ko'rsatgan sohalardan biridir. Hozirda texnologiya quyidagi muhim yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- Aloqa texnologiyalari
- Iqtisodiy texnologiyalar
- Ma'lumot texnologiyalari
- Yaratish va dizayn texnologiyalari
- Tibbiy texnologiyalar

Zamonaviy texnologiyalar yordamida insonlar o'rtasida dunyo bo'ylab tez, sifatli, samarali aloqalar o'rnatilishi, ma'lumot almashinishi; onlayn ta'lim tizimlari yo'lga qo'yilishi, darsliklar va ta'lim ilovalari yordamida o'quv-uslub tizimlarini rivojlantirilishi; tibbiyot sohasida qisqa muddatli tibbiy diagnoslar qo'yilishi mumkin. Bu ijobiy taraflar barcha insonlarning yaxshi foydalanishiga qaratilgan holda texnologik rivojlanishdan samarali foydalanish imkonini yaratishga yordam beradi.

Internetning ijobiy taraflari turli sohalar uchun ko'plab foydalarni o'z ichiga oladi. Misol uchun, internet dunyo bo'ylab ma'lumotlarga tez, oson va keng doirada murojaat qilish imkoniyatini beradi. Bu insonlarning ilmiy bilim va samaralarini oshirish hamda yangi ma'lumotlarni olish imkoniyatini beradi; insonlar o'rtasida aloqa va munosabatlarni kengaytiradi, ijtimoiy tarmoqlar va elektron pochta orqali fikr-mulohaza hamda tajriba almashinishlarini ta'minlaydi; internet yordamida ish



joylari topish va masofaviy ishlarga joylashish imkoniyatini kengaytiradi, bu insonlarga turli sohalarda xizmat ko'rsatish va o'zlarining kasbi bo'yicha boshqalar bilan aloqada bo'lish imkonini beradi; tijorat markazlari va kichik bizneslar uchun onlayn savdo va reklama qilish sharoitini yaratadi, bu tadbirkorlarga o'zlarining mahsulotlari uchun yangi mijozlar jalb qilish imkoniyatini oshiradi.

Har bir narsaning ijobiy va salbiy taraflari bo'lganidek texnologiya va internetning ham salbiy taraflari mavjud. Masalan, robotlar va avtomatlashtirilgan tizimlar ishga qo'yilishi natijasida bosh ish o'rinlari yo'qolishi; kiber hujum va virus kabilar ma'lumotlar xavfsizligini susaytirishi; bir qancha onlayn platformalar oddiy hayot va odamning ma'naviy holatiga, psixologik va jismoniy salbiyatlariga olib kelishi mumkin. Internet orqali esa foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari va onlayn faoliyatlarini to'plash insonlarga xavf yetkazadi, bundan tashqari ijtimoiy tarmoqlarda diniy-ekstremizm va terrorizm, giyohvandlik, hayosizlik, shavqatsilik va zo'ravonlik, qimorga asoslangan o'yinlar, alkogol hamda tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishga targ'ib qiluvchi axborotlarning tarqalishi holatlari yildan yilga oshib bormoqda. Ayniqsa 2017-yilda internet resurslarida o'smirlar orasida o'z joniga suiqasd qilishga chorlovchi o'yinlarning keng tarqalgani kuzatildi. Albatta bunday o'yinlar, internetdagi cheklanmagan turli xil ma'lumotlar yoshlarning ongiga salbiy ta'sir kordatadi. Bolalarni zararli axborotlardan himoya qilish uchun birinchi o'rinda axborot mahsulotlarini yoshga doir tasniflar amalga oshiriladi.

AI(artificial intelligence), ya'ni sun'iy intellekt atamasini hozirda kundalik hayotimizda tez-tez uchratamiz va uni qo'llash butun dunyoda kundan kunga rivojlanib borayotgani barchamizga ma'lum. Xo'sh, sun'iy intellekt o'zi nima? Sun'iy intellekt(SI) bu insonlar va hayvonlar tomonidan ko'rsatiladigan tabiiy ongdan farqli o'laroq mashina va robotlar tomonidan ko'rsatiladigan ongdir. Sun'iy intellekt kompyuter tizimlarining odamlarning aqliy ko'nikma va malakalarini o'rganish, tushunish va his qilish hamda ularda ishlashni o'rganish uchun qurilgan texnologiya hisoblanadi. Bu tizimlar ma'lumotlarni tushunish, tahlil qilish, maslahatlar olish, qarorlar qabul qilish va boshqa vazifalarni bajarishda insonlarga o'xshaydi yoki undan yuqori daraja ishlaydi desak ham xato bo'lmaydi. SI ko'plab vazifalarni bir nechta ishchilar bilan bir vaqtning o'zida bajarish imkonini beradi, bu esa barcha tizimni boshqarish va tizimni o'rganishda qulaylik yaratadi. Sun'iy intellekt ko'plab sohalarda, shu jumladan, tibbiyot, biznes, ta'lim va transport sohalarida muhim vazifalarni bajarishga imkon beradi.

Sining zararli taraflari ham mavjud. Misol uchun, avtomatlashtirilgan tizimlar va robotlar ish joylarida odamlarning ishini o'zlashtirishi mumkin, buning ta'sirida



bir qancha bo'sh ish o'rinlari yo'qolishi va ishchilar uchun ish yo'qligiga olib keladi. Bundan tashqari sun'iy intellektning eng katta salbiy taraflaridan biri bu ma'lumotlarni o'zlashtirib olishdir. Har kim bu funksiyadan qay maqsadda foydalanishiga bog'liq, lekin hozirda qabih niyatli kishilar yo'q emas. Bu so'zlarim bilan shuni aytmoqchimanki, internet tarmoqlariga joylangan birgina shaxsiy rasm ham insonning taqdirini hal qilib yuborishi mumkin. SI yordamida ana shu rasmni tahrirlashlari orqali siz hech qachon sodir etmagan jinoyatingiz uchun javob berishingiz mumkin yoki ana shu yovuz niyatli kishilar sizning rasm va ovozi xabarlarinigizdan foydalanib ota-onangizdan pul sorashlari va boshqa ishlarni oz manfaatlari yo'lida amalga oshirishlari mumkin. Bu esa juda qo'rqinchili holat. Lekin shuni aytib otish lozimki, sun'iy intellekt insonlarning yordamchisiga aylanib ulgurgan, undan qanday maqsadlarda foydalanish esa insonning o'ziga bogliq. Bu texnologiyalarning hayotimizdagi o'rni kundan kunga oshib bormoqda. Bu holat insoniyatning muvafaqqiyatimi yoki aksincha mag'lubiyatimi degan savollar ustidagi bahs- munozaralar uzoq davom etadi, mening nazarimda.

Internet va hozirgi zamonaviy texnologiyalar jamiyatda ahamiyatli o'rniga ega bo'lib, bir qancha sohalar bo'yicha o'zgarishlarga olib kelmoqda. Quyidagi joylarda, ularning jamiyatda o'rnini tahlil qilamiz:

Aloqa va hamkorlik: Internet, aloqa sohasida jamiyatni o'z ichiga olgan ahamiyatli vosita. Hozirgi zamonaviy texnologiyalar, jamiyatdagi insonlar uchun yaqin bo'lgan va uzoqdo'g'on aloqa tarmoqlari orqali do'stlar, oila azolari va ish do'stlari bilan o'zaro aloqada bo'lishni osonlashtiradi.

Ma'lumotlarni almashish: Internet jamiyatdagi ma'lumot almashishni sodda va tezlashtiradi. Hozirgi zamonaviy texnologiyalar, har bir odamga dunyodagi eng so'nggi yangiliklarni, ma'lumotlarni va ilmiy izohlarni olish imkoniyatini beradi.

Iqtisodiy rivojlanish: Internet va hozirgi zamonaviy texnologiyalar iqtisodiy sohadagi o'zgarishlarni kuchaytiradi. Online savdo, dasturlash, xizmat ko'rsatish va boshqa sohalar jamiyatning iqtisodiy hayotini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi.

Ta'lim va ilm-fan: O'quv jarayoni va ta'limning sohasida internet va hozirgi texnologiyalar murakkab o'zgarishlarni kiritmoqda. Uzoq masofa ta'limi, onlayn darslar, interaktiv dasturlar, elektron kutubxona - bu hamma o'quv jarayonida internet va hozirgi zamonaviy texnologiyalar o'z o'rinni topmoqda.

Sotsial Tarmoqlar va ommaviy munosabatlar: Sotsial tarmoqlar internetning asosiy qismini tashkil etadi. Bu orqali insonlar global tarmoqlarda birlashishadi, tajribalarini almashishadi va o'z fikrlarini izhor qilishadi. Bu jamiyatning ijtimoiy



munosabatlarini yangilash, kamtarini birlashtirish va boshqa jamiyat a'zolari bilan aloqalarni kuchaytirish imkonini beradi.

Demokratiya va politika: Internet, demokratik jamiyatlar uchun o'zgartirilgan qarorlarning qabul qilinishi va tadbirlarning ochilishini kuchaytiradi. Internet orqali yangiliklar, siyosiy fikrlar, protestlar va boshqa sohalar bilan shug'ullanish, jamiyatda demokratik jarayonlarni rivojlantiradi.

Shunday qilgan, internet va hozirgi zamonaviy texnologiyalar jamiyatda o'z o'rnini o'zgartirib, bir qator sohalarida yangiliklarni kiritadi va o'zgarishlarga olib keladi. Bu texnologiyalar o'zlarini jamiyatda o'z-o'zini ifodalash, jamiyatni rivojlantirish va global jamiyat bilan aloqalarini o'rnatishda ahamiyatli vositalar sifatida ko'rinmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. [Talim jarayonini tashkil etishda metodlar va ularning imkoniyatlari](#) I Aldashev, S Aldasheva - Journal of technical research and development, 2023
2. [Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalarni o'rnini](#) M To'rayev, ST Aldasheva, IT Aldashev - Results of National Scientific Research International ..., 2023
3. [o'quv jarayoniga media ta'limning integratsiyasi](#) i Aldashev - Scientific journal of the Fergana State University, 2023
4. Yuldasheva, G., & Yo'ldosheva, M.(2023). Yangi innovatsion texnologiyalarning pedagogik jarayondagi roli. Talqin va tadqiqotlar, 1(6).
5. Алдашев, И. (2020). Современные информационные технологии в образовании-это новые возможности. Экономика и социум, (6 (73)), 341-344.
6. Shermatova, H. M. (2023, January). Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt tizimlarini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida qo'llanilishi. In international scientific and practical conference"
7. The time of scientific progress" (Vol. 2, No. 1, pp. 107-113). Mirzayevna, S. H., Muhammadaliyevna, A. S., & Qizi, O. M. O. (2022). Boshlang'ich Sinflarda Ta'lim Sifatini Oshirishda Aktdan Foydalanish. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1(13), 69-74.
8. Mirzaakbarov, D. D. (2021). DIRECTIONS FOR THE INTRODUCTION OF NEW INFORMATION TECHNOLOGIES IN EDUCATION. Экономика и социум, (4-1), 211-214.



9. Mirzaakbarov, D. D. (2021). Directions for the introduction of new information technologies in education. Экономика и социум, (4-1 (83)), 211-214.
10. [Media ta'limning o'quv jarayoniga tatbig'i](#) I Aldashev - Results of National Scientific Research International ..., 2023
11. [The importance of primary school teachers to use act in their activities](#) T Tojiyev, I Aldashev - 2022
12. [Talim jarayonini tashkil etishda metodlar va ularning imkoniyatlari](#) I Aldashev, S Aldasheva - Journal of technical research and development, 2023
13. [Turli sohalarda axborot texnologiyalarining tutgan roli](#) S Madinabonu, A Ixhomjon - Научный Фокус, 2023
14. [Zamonaviy texnologiyalarning hozirgi kundagi ahamiyati](#) A Ixhomjon, A Gulira'no - Научный Фокус, 2023